

NEMIS TILI TURG'UN BIRIKMALARI HAQIDAGI NAZARIYALAR

SamDCHTI o'qituvchisi

B.A. Abdiyeva

Annotatsiya: *Maqola nemis tilidagi turg'un birikmalar va ularning qurilishi haqidagi nazariyalar tahliliga bag'ishlangan. Frazeologiya bu tilshunoslikdagi o'zgarmas turg'un birikmalarni o'rganuvchi bo'lim bo'lib uning davomli rivojlanishini shu davrgacha bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Turli dunyo olimlarining frazeologiya va frazeologizmlar haqida bildirgan fikrlari ba'zan bir birini inkor qilsa ba'zan tasdiqlaydi. Burger Yakshe, Pilz, Thun, Sharl Balli, X. Xoket kabilarning frazeologiya va turg'un birikmalar haqidagi nazariyalari sohadagi salmoqli rolga ega fikrlar sirasiga kiradi.*

Kalit so'zlar: *nemis tili, frazeologiya, nazariya, frazeologizmlar, turg'un birikmalar, idioma, psixoanalitik nazariya, struktura.*

Bizga ma'lumki, dunyodagi har bir tilning lug'at boyligi so'zlar va o'zgarmas turg'un birikmalardan iborat. Til lug'at fondining turg'un birikmalarni tashkil etuvchi qismi frazeologik qatlam va shu frazeologik qatlamni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi frazeologiya deb ataladi. Shuning uchun ham biz ushbu ilmiy ishimiz mavzusini til lug'at boyligining muhim qatlamlaridan biri bo'lgan turg'un birikmalarining nemis va o'zbek tillarida qiyoslab tasniflashga qaratdik. Bugungi kungacha olimlar frazeologiya doirasida nafaqat turg'un birikmalrni, balki maqol, matal, aforizmlarni ham turli tomonlama tasniflashga harakat qilib kelganlar.

Barcha tillardagi turg'un birikmalarining anglatgan ma'nolari va ularning tuzilishini o'rganadigan zamonaviy tilshunoslik tarmoqlaridan biri frazeologiyadir.

Frazeologiya atamasini izohlashimiz uchun uning amaliy va nazariy jihatlarini ko'rib chiqishimizga to'g'ri keladi. Dunyo tillaridagida frazeologik hodisalarning qay holatda qo'llanilishi va ularning qanday vositalar bilan ifodalanishi turli xil tajribali lingvistlar davrasida qizg'in tahlil qilinib, dolzarb tortishuvlarga sabab bo'lmoqda.

“Frazeologiya” tushunchasini ilk bor Sharl Balli tilshunoslik sohasiga kiritdi va unga izoh berdi, shundan so'ng tilshunoslikning farzeologiya degan qismida tadqiqot obekti hisoblanadigan frazeologik birliklarning ahamiyatiga kengroq e'tibor berila boshlandi.

Amerika Qo'shma Shtatlari va Yevropada bugungi kunda frazeologiya sohasida uning dolzarb muammolarini mazmunan qamrab oladigan maqolalar va ilmiy tadqiqot ishlari soni kundan- kunga oshib bormoqda. Bu esa o'z o'rnida tilshunos olimlardagi frazeologiya sohasiga bo'lgan qiziqishning yuqori ekanidan dalolat beradi. Shu o'rinda biz o'rganayotgan nemis tilidagi frazeologik birliklar ham ko'pchilik olimlarning tadqiqot ishlari mavzusiga aylanib ulgurdi [39, 4-6].

Sh. Balli “frazeologiya” atamasini tilshunoslikka kiritgan o'sha davrning o'zidayoq nemis tilidagi turg'un birikmalar to'g'risida ko'plab ilmiy ishlar va nashrlar vujudga kela boshlagan edi, aslida. Nafaqat Germaniya balki butun G'arbdagi bunday mavzudagi ishlar faqatgina frazeologiya sohasiga taaluqli bo'lganligi sababli o'sha davrda katta muvaffaqiyat qozonmadi. Bunday tadqiqot ishlariga misol qilib Burger Yakshe, Pilz, Thun kabi olimlar izlanishlarini

keltirish mumkin. Shunga qaramasdan soha o'zining dolzarb muammolari bilan olimlardan ayrimlarining diqqatini torta oldi va aynan shu olimlar tomonidan tilshunoslar ommasiga taqdim qilingandi va uning shu paytgacha ko'rilmagan, tilshunoslik uchun naqadar muhim bo'lgan jihatlari oydinlashdi. Bunga, xususan, nemis va rus olimlarining frazeologiya sohasidagi ta'rif va talqinlarini namuna qilib keltirish o'rinlidir.

Frazeologiya sohasidagi bugungi kungacha olib borilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar va yaratilgan ilmiy maqolalar mazmunidan xulosa qilib frazeologizmlarga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: frazeologizmlar qo'llanilishda turg'un qo'llanib, ko'chma ma'noga ega bo'lgan ikki yoki undan ortiq so'zlarning sintaktik va semantik birikuvidan hosil bo'ladigan so'zlar birikmasiga aytiladi. Frazeologiyani tilshunoslikda ma'lum aspekt deb ifodalash mumkin.

Turg'un birikmalarda ham ko'p ma'nolilik xususiyati mavjud bo'lib, bu ularning lug'aviy va frazeologik ma'no munosabati har doim ham mos kelavermasligini anglatadi, ya'ni ular turli ma'no hamda strukturaga ega bo'lishi mumkin. Turg'un birikmalarning ma'no mohiyatini ularning har biri alohida matnda kelgandagi holatlaridan aniqlash mumkin, ya'ni, har bir frazeologik birikma ikkita matnda ikki xil ma'noga ega bo'lishi mumkin. Nemis tilidagi "Dank sagen" frazeologizmi bunga misol bo'la oladi. Bu turg'un birikma kontekstga qarab, o'zbek tiliga quyidagi ikki ma'noda tarjima qilinadi:

- 1) Kingadir minnatdorchilik bildirmoq
- 2) Hurmatini bajo keltirmoq.

Bugungi kungacha olib borilgan frazeologik tadqiqotlarda biz qisman motivlashtirilgan turg'un birikmalar degan atamaga duch kelamiz. Bu turdagi turg'un birikmalar shunday birikmalarki, ular bir yoki bir nechta aniq so'z birikmasidan tashkil topadi va ana shu birikma tarzida bir umumiy frazeologik ma'noga ega bo'ladi, ammo uning tarkibidagi elementlarning hammasida ham anglatayotgan alohida lug'aviy ma'nolar turg'un birikma anglatayotgan umumiy ma'noga mos kelavermaydi.

Nemis tilidagi in Hülle und Fülle leben (rohat va farog'atda yashamoq, mo'l - ko'pchilikda yashamoq) turg'un birikmasini tahlil qilib ko'raylik. Bu iboradagi Fülle so'zi o'z lug'aviy ma'nosini saqlab qolgan, ammo Hülle o'z ma'nosidan umuman boshqa ma'noda kelayotganini va o'z ma'nosini yo'qotganini ko'rish mumkin.

Turg'un birikmalarning ikkinchi bir turi metaforik motivatsiyalashgan turg'un birikmalar hisoblanadi. Bunday turg'un birikmalarning ma'nolari faqat ularning lug'aviy ma'nosidan tushunarli bo'lib, ammo ko'chma ma'noga ega bo'lmaydi, boshqacharoq qilib aytganda turg'un birikma anglatgan ma'no aynan uning elementlarining lug'aviy ma'nosidan kelib chiqadi.

Agar biror birikmaning anglatgan ma'nosi uning tarkibiy qismlarida anglashilayotgan ma'nolaridan chetga chiqmasa, ya'ni turg'un birikma tarkibiy elementlardagi lug'aviy ma'no bilan bir xil ma'noga ega bo'lsa bunday turg'un birikmalar motivatsiyalashmagan turg'un birikmalar deb ataladi. Masalan: an jemandem einen Narren gefressen haben va gang und gabe.

Frazeologiya tilshunoslik sohasidagi lingvistik hodisa hisoblanadi va shuning uchun ham bir qancha yillardan beri ko'pchilik tilshunos olimlarning diqqat e'tiborini tortib, qolaversa, ularning qiziqishlarini orttirib kelmoqda. Ana shu tilshunos olimlar uni turlicha tadqiq qilib, u haqida turli fikrlar bildirganlar. Quyida ulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

Taniqli tilshunos olim Yanko Trinituiskayaning fikricha, "turg'un birikmalar" – bu

ko'chma ma'nodagi birliklardir. U tildagi so'z, so'z birikmasi va gap deb ataluvchi qatlamning har birida biz turg'un birikmalar deb ataluvchi alohida bir qatlam mavjudligini va shu qatlamning so'zdan boshlab boshqa til qatlamlariga qarab kengayib borishini ko'rishimiz mumkinligini o'z ilmiy tadqiqotlarida asoslab tushuntirib beradi. X. Xoket, boshqa tilshunos olimlarning fikrlaridan farqli ravishda idiomatika sohasini kengroq tushuntirib berishga harakat qilgan. "Idioma oddiy so'z, chunki uning ma'nosi birikmaning fonologik hamda morfologik strukturasi bog'liq emas. So'z birikmalari qachonki ularning ma'nosi tarkibidagi so'z ma'nolariga bog'liq bo'lmasagina, idioma bo'la oladi",- deydi u.

Lingvistikadagi turg'un birikmalar tushunchasi bugunga qadar nafaqat tilshunos olimlar balki boshqa soha vakillarini ham qiziqtirib kelgan. Jumladan, psixologlar bunday til hodisasining inson ruhiyatiga qanchalik ta'sir qilishi to'g'risida ancha bosh qotirganlar va hatto bu borada bir qancha empirik tadqiqotlar ham olib borganlar. Ularning natijasiga ko'ra inson ruhiyatiga oddiy so'zlardan ko'ra frazeologik birliklarning ta'siri ancha katta ekanligi aniqlangan. Ularni biz qanday qilib xotiramizda to'plashimiz, tinglash jarayonida ularni qayta ishlashimiz, va o'z o'rniga qo'yib foydalana olishimiz ham psixolingvistlar tomonidan o'rganib kelinmoqda. Bu borada olib borilgan tadqiqotlardga Zigmund Freydning psixoanalitik nazariyasini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Pedagogika ham tilshunoslikning turg'un birikmalar sohasi bilan bog'liq jihatlariga qiziqib keladi. Ayniqsa, bunda bolalar qaysi yoshdan turg'un birikmalarni tushuna boshlashlari yoki tushungan turg'un birikmalardan necha yoshdan boshlab o'z nutqlarida foydalana olishlari, qaysi sinfdan boshlab darsliklarda turg'un birikmalarning berib borilishi mumkinligi, til refleksiya turg'un birikmalarga qachon to'liq moslashishi mumkinligi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi va til o'rgatish didaktikasi sohasida ana shunday savollarga javob topiladi.

Turg'un birikmalarga bo'lgan adabiyot nazariyasi doirasidagi qiziqish va tadqiqotlar ancha yillardan beri ana'naga aylanib qolganligi hech kimga sir emas. Shunday bo'lsa ham hali hamon bu boradagi izlanishlar o'z nihoyasiga yetkazilmagan. Asosan, hozirgi kunda, milliy va mumtoz asarlardagi turg'un birikmalarga bag'ishlangan tadqiqotlarga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. U "shakl" tushunchasi bilan bevosita turg'un birikmalar sohasiga aloqadordir. Turg'un birikmalarning shaklan mos qilib misra va matnga joylashtirilishi adabiyotdagi o'rganilayotgan muhim masalalardan hisoblanadi. Zero, shakl bayt (misra)ning vositasi, matn strukturasi yodda saqlashga ko'maklashuvchi, struktura yasovchi vosita hisoblanishini taniqli nemis adabiyotshunosi Haymes o'zining 1977 – yilgi tadqiqot xulosalarida ham ta'kidlab o'tgan edi.

Shunday qilib, turg'un birikmalarni qurilish jihatdan so'zlarning ekvivalentlari deb ataymiz. Ular, shuningdek, sintaktik munosabatda so'zga yaqin va sintagmaga yaqin bo'lishlari ham mumkin. Ko'rib turganimizdek, tilshunoslikning turg'un birikmalar sohasi ko'pchilik tilshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan soha hisoblanadi.

Biz ham tilshunoslikning eng nozik soshalaridan hisoblangan frazeologiya sohasiga bo'lgan katta qiziqishimiz va yuqoridagi keltirilgan tilshunos olimlarning shu sohaga doir izlanishlarini tahlil qilishdan olgan bir oz bilimlarimiz bilan ushbu magistrlik dissertatsiyasida turg'un birikmalarning nemis va o'zbek tillari doirasida qo'llanilishi hamda ularning qo'llanilishidagi o'xshash, farqli jihatlari to'g'risida so'z yuritishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Ushbu ishning asosiy qismida bu sohaga doir fikrlarni kengroq tushuntirishga harakat

qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache . Leipzig, 1982.
2. Klappenbach R. Probleme der Phraseologie. Karl-Marx-Universität, Leipzig, 1968.
3. Kohler C., Herzog. A., Kursitza W. Deutsche verbale Wendungen für Ausländer. Leipzig, 1974.
4. Korhonen, Jarmo (Hrsg.) Phraseologie und Wortbildung – Aspekte der Lexikonerweiterung. Finnisch-deutsche sprachwissenschaftliche Konferenz, 5. - 6. Dezember 1990 in Berlin. Max Niemeyer Verlag. Tübingen, 1992: (Linguistische Arbeiten 284).
5. Lewkowskaja X.A. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. Moskau, 1968.
6. Lutz H.D. Vorüberlegungen und Versuche zur statistischen Beschreibung der Adjektiv – Substantiv – Verbindung im Mittelhochdeutschen. München, 1975.
7. Röhrich L. Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten. 3. Aufl. Herder Verlag, Freiburg. Basel, Wien, 1974.
8. Hans Schemann. Deutsche Idiomatik. Stuttgart, Dresden, 1993.
9. Schippan T. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. Leipzig, 1984.
10. Schmidt V. Die Streckformen des deutschen Verbuns. Halle, 1968.
11. Stepanova M.D., Cernyseva I.I. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. Moskau, 2003.
12. Rothkegel A. Feste Syntagmen. Grundlagen, Strukturbeschreibung und automatische Analyse. Tübingen, 1973.